



2022-yil. 3-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



«Til va adabiyot ta'limi» «Преподавание языка и литературы» «Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosiroy
Tolib Enazarov
To'liq Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxum Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev (bosh muharrir
o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

MUNDARIJA

TAHLIL	
Manzar ABDULXAYROV. Navoiy asarlari matnidagi fonetik xususiyatlar tahlili.....	2
Azamat AZIMOV. Teaching vocabulary at primary schools (Beginner classes)	3
Lazokat IKANOVA. ICT tools in teaching and improving listening skills in English	6
TADQIQOT	
Olima O'RINOVA. O'zbek shevalarida antroponimik variantdorlik va onomastik parallellar	8
Shahnoza XAYDAROVA. O'zbek tilida mehmondo'stlikka oid ijobiy istak birliklarining lingvoadaniy xususiyatlari.....	10
Nilufar TURGUNOVA. Ona tili ta'limida grammatik bilim berishning o'ziga xos yondashuvlari.....	12
Matlaba NORBAYEVA. Adabiyotda "yetim bola" obrazi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni	15
Xurshid SEROBV. "Samarqand sayqali" dramasiida konflikt yaratish muammosi	17
Tozagul DUSANOVA. Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi an'analari.....	20
Yusufjon NABIJANOV. Matnlarni tahlil qilishda grafik organayzerlar	22
TAHLIL	
Gulchehra DARVISHOVA. Viktoriya davri ingliz adabiyoti	25
Feruzakhon YAKUBOVA. The importance of information technologies in the formation of communicative competencies of students of technical universities	27
Nilufar NAMAJOVA. Muharrir iste'dodi va davr talablari	29
TADQIQOT	
Marvarid NURBAYEVA. Ta'lim turlari va uni tashkil etish an'analari	31
Hamid YODGOROV. She'riy matnda disfemizmning o'rni	33
Ma'suma MO'MINOVA. "Suv" komponentli birliklarning antroposentrik tadqiqi	36
Dildora PULATOVA. Murojaat shakllarining ifodalanishida nolisoiy vositalarning o'rni	38
Ahadhon MUHAMMADIYEV. Muhiyining turkiy devoni manbalari	39
TAHLIL	
Shahnoza AKBAROVA. Formation and development of lexical skills in the process of teaching a foreign language	43
TADQIQOT	
Marvarid NURBAYEVA. Alisher Navoiy asarlarida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati va dolzarbligi	44
Maloxat BADALBAYEVA. Tabiiy ofatlar terminologiyasining taraqqiyoti, tuzilishi va tasnifi	47
TAHLIL	
Oydin AMETOVA. "Qutadg'u bilig" asarini tahlil qilish usullari	49
Lobarxon Rustamova. Navoiyning oilaga munosabati	53
МЕТОДИКА. ОПЫТ	
Марал АЙТЖАНОВА. Разработка урока на тему «Жизнь и творчество Сергея Есенина»	54
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Шавкат НИШАНОВ. Особенности обучения РКИ в системе онлайн	57
Дилмура УМАРОВА. Об отборе лексического и грамматического материала при изучении русского языка	58
Анжелла БАБАЕВА. Инновационные технологии совершенствования коммуникативной подготовки будущего учителя русского языка как иностранного на основе виртуальных экскурсий	60
Полина КЛЕБЛЕЕВА. Этапы формирования навыка поиска информации в Интернете у студентов филологических факультетов	63
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Муяссар ТИЛЛАЕВА. Фразеология как лингвистическое направление	65
Нозанин ИКРОМОВА, Эркин ХАКИМОВ. Русские и английские фразеологизмы как отражение национальной культуры	66
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Алексей РОТАНОВ. О разграничении понятий «комикс», «рисованная история» и «графический роман»	68
Хуршидбек МАМАТИСАКОВ, Дильфуза ХУСЕНОВА. Русский постмодернизм XX века	70
Мохира ИБРАГИМОВА. Социальные мотивы формирования писателя Тимура Пулатова	71
ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА	
Виктория ДВОРЯШИНА. Художественное выражение темы «поисков Америки» в «Путешествии с Чарли» Джона Стейнбека	73
ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ	
Лола АКРАМОВА. О новом подходе к научно-исследовательской деятельности вузов Узбекистана	76
Нилуфар УСМАНОВА. Риторические стратегии в дискурсах о языке	78
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Феруза МУХИТДИНОВА. Особенности глаголов речи в Интернет-лексике	80
Сабохат КУРБАНОВА. Концепт «Чудо»	82
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Сухроб ИСМАТОВ. Взгляды переводоведения на теорию поэтического перевода	84

niyat bildirishini aytish mumkin. *“Ishingizni rivojini bersin”, “Topganingizga baraka bersin”, “Rizqingiz butun bo‘lsin”* kabi ijobiy istak birliklari ham yuqoridagi fikrlarga isbot bo‘la oladi.

“Qo‘shganingiz bilan qo‘sha qaring” metaforik birikmasida ijobiy istak bildirish bilan bir qatorda o‘zbek xalqi uchun oilaning muqaddas tuyg‘u ekanligiga alohida urg‘u berilgan.

“Uyingiz bug‘doyga to‘lsin” birikmasida sinekdoxa usulida ma‘no ko‘chib, xalqimiz xos bo‘lgan bug‘doyni va undan tayyorlanadigan nonni ulug‘lashini bilishimiz mumkin. Sababi barcha xalqda ham o‘ziga xos aziz ne‘mati bo‘ladi. Masalan, o‘zbek xalqi uchun non muqaddas bo‘lsa, koreyaliklar uchun guruch muqaddas hisoblanadi. Bu narsa o‘sha xalqning geografik joylashuv o‘rni, iqlimi va yana shu kabi bir qator omillar asosida yuzaga keladi.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin” birikmasida metafora usulida ma‘no ko‘chib, xalqimizning

vatanparvar ekanligiga, yurtimizda to‘rt faslning ham mavjudligiga ishora bor. Bu hududiy joylashuv bilan ham bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, mehmondorchilikka oid ijobiy istak birliklarida quyidagi lingvomadaniy xususiyatlar namoyon bo‘lgan:

-sin qo‘shimchasini qo‘shish orqali til birliklariga ijobiy istak ma‘nosi yuklanganligi;

-ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasi inkor ma‘nosini berishi bilan bir qatorda, istak ma‘nosini kuchaytirib kelganligi;

ijobiy istak birliklarida metafora, metonimiya, sinekdoxa usullarida ma‘no ko‘chish orqali istak ma‘nosini ta’kidlab kelganligini;

ijobiy istak bildirish orqali xalqimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar: mehmondo‘stlik, oilaparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, duogo‘ylik, insonparvarlik kabi fazilatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971. –P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М., 1990. –С. 26.
2. Bazarova M. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2007. 8-b.
3. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari d-ri.diss. – T., 2000. 34-40-b.
4. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomzodi diss. Aftoref. – Samarqand, 1993. 19-b.
5. Mirzayev T., Musaqlulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Sharq. – T., 2005, 94-104-b.

Nilufar TURG‘UNOVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

ONA TILI TA‘LIMIDA GRAMMATIK BILIM BERISHNING O‘ZIGA XOS YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Maqolada til ta‘limida grammatikani o‘qitishga oid yondashuvlar tahlili berilgan. Ona tili darslarini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish, lingvistik bilimni kontekstda berish xususida ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: grammatika, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, kontekst.

Annotation. The article analyzes the approaches to teaching grammar in language teaching. Scientific views on the organization of mother tongue lessons on the basis of a communicative approach, the transfer of linguistic knowledge in the context.

Keywords: grammar, linguistic competence, verbal competence, communicative approach, context.

Аннотация. В статье анализируются подходы к обучению грамматике в языковом обучении. Высказываются научные взгляды на организацию уроков родного языка на основе коммуникативного подхода, передачи языковых знаний в контексте.

Ключевые слова: грамматика, языковая компетенция, вербальная компетенция, коммуникативный подход, контекст

Til ta‘limini yangi bosqichga olib chiqish va har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu kunga qadar ona tili darslarida asosiy e‘tiborning grammatik qoidalarni yodlatishga qaratilganligi, berilayotgan bilimlarning amaliyot bilan bog‘lanmasligi, darsliklardagi ayrim kamchiliklar, xususan, bir xil tipdagi mashq va topshiriqlardan iborat ekanligi ona tilini o‘qitishga bo‘lgan qarashlarni o‘zgar-

tirishni talab etmoqda. Ona tili darslari o‘quvchilar nazdida faqat qoida yodlash va yozish darslariga aylanib bormoqda. Mavjud darsliklarda grammatizmga haddan ortiq e‘tibor qaratilgan, o‘quvchining nutqini o‘stirishga xizmat qiladigan amaliy topshiriqlar esa juda kam.

Nutq o‘stirish maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi sanaladi. Ma‘lumki, til jamiyat a‘zolari o‘rtasida aloqa vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini

og'zaki va yozma ravishda berish, o'z ichki kechinmalari bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladi. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar [1: 303].

Bugungi kunda til ta'limida grammatika o'qitishning ahamiyati xususida turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ba'zilar grammatika ona tili ta'limining asosi deb hisoblasa, ba'zi metodistlar esa til o'qitishda o'quvchi nutqi ustida ishlashga ko'proq ahamiyat qaratilishi lozimligini ta'kidlamodalar. Aslida, nutqiy va lingvistik kompetensiyani bir-biridan ajratish mumkinmi?

Jek Richards va Uilly Renandya tahriri ostida nashr ettirilgan "Til o'qitish metodologiyasi" kitobida grammatikani o'qitishning o'rnini haqida ilmiy-nazariy qarashlar bayon etiladi. Til o'qitishda grammatikaning o'rnini eng ko'p munozaraga sabab bo'luvchi mavzu hisoblanadi. XX asrning boshlarida grammatikani o'qitish til o'qitishining ajralmas bo'lagi edi, shu sababli ham til o'qitishining boshqa jihatlari e'tibordan chetda qoldi. **Agar siz tilning grammatik qoidalarini bilsangiz, unda muloqot ham qila olasiz**, degan konsepsiya ustun edi. Ushbu konsepsiya 1970-yillarning boshida jiddiy qarshiliklarga uchradi. Aytildiki, grammatik qoidalarini bilish kommunikativ kompetensiya tushunchasini hosil qiluvchi ko'plab qismlarning biri xolos. Tildan malakali foydalanish uchun nafaqat uning grammatik qoidalarini, balki, qoidalar jonli muloqot jarayonida qanday qo'llanishini ham bilish kerak bo'ladi. Bu paytlarga kelib grammatikani o'qitish muhim sanalmadi, xatto, undan voz kechilgan holatlar ham bo'ldi.

So'nggi yillarda grammatika til o'qitish dasturlarida yana o'z o'rniga ega bo'ldi. Grammatikani e'tibordan chetda qoldirish yaxshi emasligini, grammatikani egallamay turib til malakalarini rivojlantirib bo'lmazligini ko'pchilik tan oladi. Hozir shunday qarash mavjudki, grammatikani o'qitamizmi yo'qmi degan savolga javob izlash muhim emas. Endi til o'qitish metodologiyasi grammatikani o'qitish masalasida quyidagi savollarga javob izlamogda:

O'quvchilar uchun grammatikaning qaysi qismlari muhim, ular qaysi qoidalarga muhtoj?

Grammatikani o'rgatishning qanday samarali usullari mavjud?

Ularni qanday o'qitgan ma'qul, induktivmi yoki deduktivmi? [2: 145-146].

Maykl Svon grammatikani o'qitishga bag'ishlangan maqolasida grammatikani o'zlashtirish uchun odamlar juda uzoq vaqt sarflashlari ta'kidlab o'tadi va grammatikani o'qitish uchun 7 ta "salbiy-murakkab" va 2 ta "yaxshi" sabablar keltirib o'tiladi.

Yetti "salbiy-murakkab":

Chunki o'qituvchilar darslikda berilgan barcha Grammatik qoidalarini o'quvchi o'zlashtirishi shart deb hisoblashadi. Lekin darslikdagi barcha grammatik qoidalar har bir sinf uchun bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Grammatika muayyan tartibga ega va o'rgatish uchun qulay – tilning lug'at tarkibi yoki talaffuz jihatlarini o'rgatishdan ko'ra grammatikani o'qitish ancha oson.

Test uchun qulay – grammatik testlar o'quvchilar bilimni tez va oson tarzda tekshirib olish uchun imkoniyat yaratib beradi

Grammatika – "xavfsizlik yostiqchasi" – grammatikani o'rganish o'quvchi uchun ham qulay. Ayniqsa xoriijiy tillarni o'rganayotganda grammatik qoidalar o'quvchi uchun mayoq singari xizmat qiladi va o'quvchida o'rganayotgan materialini tushunaman va nazorat qila olaman, degan hissiyotni uyg'otadi. Lekin bu tuyg'u faqat illuziya bo'lishi mumkin.

Grammatikani o'rganishning muhim deb hisoblanishi;

Siz butun sistemani o'rganishingiz kerak – ko'pchilik grammatikani o'zaro bog'liq bo'lgan yagona sistema va u to'g'ri ishlashi uchun undagi barcha narsani o'rganish kerak, deb hisoblashadi. Grammatik tizim biror qismi olib tashlansa, butulay ishdan chiqadigan mashina dvigateli emas, unga bir-biri bilan ba'zan chambarchas, ba'zan esa bo'sh bog'lanadigan, ba'zilar esa butunlay mustaqil elementlarning yig'indisi deb qarash to'g'riroqdir.

Grammatikani o'qitish darsda o'qituvchining o'quvchilardan ustun ekanligini ko'rsatib turadi.

Grammatikani o'qitishning 2 ta "yaxshi" sababi sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

Tushunarlilik – tilning asosiy grammatik qoidalarini, gap tuzulishining aniq strukturalarini o'zlashtirmasdan turib tushunarli jumla tuzib bo'lmaydi.

Muvofiqlik – muayyan tilni chet tili sifatida o'zlashtiruvchilar grammatikani bilmasligi mazkur tilda so'zlovchilar jamiyati bilan integratsiya qilishiga, munosib ish topishiga halaqit beradi. Grammatikani bilmaslik ba'zi jamiyat a'zolari ongida "o'qimagan" degan qarashni uyg'otadi. Jamiyatning mana shunday talablariga muvofiq bo'lish uchun ham grammatikani o'rganish lozim [3].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, grammatikani o'qitish, albatta, kerak. Chunki ona tili darslarida o'quvchiga tilning ichki tuzilishi, til birliklari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabat haqida ma'lumot bermay turib, unda ona tili fani haqida tassavvur shakllantirib bo'lmaydi.

Zabardast tilshunos olim N.Mahmudov grammatikani o'qitish zaruriyati, ta'limda me'yorni ta'minlash xususida qimmatli fikrlar bildirib o'tganlar: *"Ona tili ta'limi haqida gap ketganda aksariyat mutaxassislar, hatto nomutaxassislar ham, tilshunoslik unsurlaridan, ayniqsa, grammatikadan voz kechishning samarador yo'l ekanligini asoslamoqchi bo'ladilar. Albatta, maktab ta'limida grammatika muayyan me'yorda bo'lmog'i lozim, zaruriy miqdoriy tanosibni buzmaslik zarur, ammo grammatikadan butunlay voz kechish aqlning ishi emas... Grammatika ona tilini maktabga kelguncha g'ayrihuuriy bir tarzda o'ziniki qilib bo'lgan bolaning bu tilni ongli idrok qilish ko'nikmalarining turg'unlashuviga ko'mak berishi, bolaning butun umri davomida tilining uzun va tugal bo'lishi uchun tirgak tutishini yodda tutmoq lozim. Ilgari grammatika keragidan ortiqroq*

bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, maktab ta'limida, kamida, sinflar kesimida grammatika oqilona bir me'yorda bo'lishi kerak" [4: 9].

Shu bilan birgalikda nutq o'stirishning ahamiyati haqida ham unutmashlik lozim. Faqatgina grammatik jihatdan savodxon emas, balki o'z fikrini aniq, ifodali usulda yetkazib bera oladigan, turli mavzularda o'z munosabatini erkin bildiradi oladigan, ham og'zaki, ham yozma matn bilan ishlash ko'nikmasi shakllangan o'quvchini tarbiyalash ona tili darslarining asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Buning uchun esa ona tili o'qitishga bo'lgan hozirgi yondashuvni biroz o'zgartirish, o'quvchiga quruq qoidaning o'zini yodlatishdan voz kechish lozim. Darsliklarda grammatikani muayyan mavzularga bog'lab tushuntirishga, ya'ni lingvistik bilimni kontekstda berishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Kontekst so'zining lug'aviy ma'nosi jipslashish, bog'lanish ma'nolarini anglatib, og'zaki yoki yozma nutq(matn)ning nisbatan tugal qismini ifodalaydi. Kontekst biror so'z yoki gapning ma'nosini aynan ochib berishga yordam beradi. Muayyan jumlaning kontekstdan yulib olgan holda tahlil qilish o'quvchini asl mohiyatdan chalg'itadi, jumlaning idrok qilish qiyinlashadi. Ona tili darslarida yaxlit, fikr tugalligiga ega matnlar bilan ishlash, lingvistik bilimni biror mavzu doirasida o'rganish o'quvchi tomonidan grammatikani samarali va ongli o'zlashtirishiga olib keladi. Lingvistik bilimni kontekstda berish til ta'limida tobora ahamiyati ortib borayotgan kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Xususan, tilshunos I. Azimova ona tili darslarini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish zaruriyati xususida fikr bildirib, aynan lingvistik bilimni kontekstda berishga alohida e'tibor qaratadi:

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.

Grammatik qoidani avval berib keyin mashq bajarish usuli shuncha vaqtdan beri ona tilini o'qitishda qo'llab kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog'lanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni o'qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo'llanishi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bex-

ato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi. O'rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi [5: 135].

Metodist olimlar tomonidan bildirilgan turli fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda ona tili ta'limi quyidagi mazmunda tashkil etilishi lozim:

ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir;

tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnning o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi;

o'quv materiallari tilni o'zlashtirishda nutqiy vaziyatning o'rnini nechog'li muhimligidan kelib chiqqan holda tanlanadi, ya'ni qaysi yoshdagi o'quvchi qanday mavzularda muloqot qilish, til birliklaridan foydalanishga ehtiyoji borligi inobatga olinadi;

til ta'limi jarayonida lisoniy struktura emas, balki mazmun birlamchi ekanidan kelib chiqib, grammatik bilimlar spiralsimon shaklda beriladi (amalda til sathlari kesimida muayyan sinfda vertikal tarzda o'qitilgan. Aslida, nutqiy muloqotda barcha til sathlariga ehtiyoj seziladi);

Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi

O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi;

Lisoniy ko'nikmalar alohida olingan tasodifiy gaplar orqali emas, balki turli uslubdagi matnlar, kontekst asosida amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda berib boriladi [6:116].

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida o'quvchida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish birdek ahamiyatga ega. Til ta'limini grammatika o'qitishdan voz kechgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Faqat berilayotgan Grammatik bilimlar orasidan o'quvchi uchun muhim va nomuhimlarini ajratib olish hamda o'qitish tizimini takomillashtirish lozim. Ya'ni o'quvchi ona tili darsida ham biror nazariy qoidani o'rganishi, ham o'rganish davomida nutq o'stirish maqsadiga erishishi lozim. Lingvistik bilimni o'quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega mavzular doirasida tushuntirish grammatikani o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va b. Ona tili o'qitish metodikasi – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Jack C. Richards, Willy A. Renandya. Methodology in language teaching – Cambridge University Press, 2002. (Sh. Yo'ldosh tarjimai)
3. Swan, M. Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in language teaching* – Cambridge University Press, 2002. Page 148-152.
4. Mahmudov N. Til ilmi va ta'limining muntazamligi. Til va adabiyot ta'limi– 2021-yil, 10-son.
5. Azimova I. Ona tili bo'yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruza tezislari to'plami. – Toshkent, 2020.
6. Mavlonova K. Ona tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Qarshi, 2021
7. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (til ta'limi). Uslubiy qo'llanma – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2020.